

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI XORIJIY TILLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABIGA
NOMZODLARNI QABUL IMTIHONI MATERIALLARI
SPETSIFIKATSIYASI
MAKTABGA TAYYORLOV VA 1-SINF 2026/2027-o'quv yili**

Mazkur spetsifikatsiya maktabga tayyorlov va 1-sinfga qabul qilinadigan o'quvchilarni sinovdan o'tkazish suhbat savollari qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning maktabga tayyorgarlik bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida maktabga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi "Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 214-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktabga o'quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom.

III. Baholash qamrovi

Suhbat savol-javob shaklida o'tkaziladi: har bir variantda 5 tadan savol berilib, har bir o'quvchiga 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

Suhbat savollarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

<i>Mazmun soha</i>	<i>Konstrukt</i>	<i>Savollar soni</i>
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish. “Men” tamoyili.	- oilasi, davlati, millati, tili va madaniyatining muhim elementlarini bilish, hamda ularga o‘z munosabatlarini hissiyotlari orqali ifoda eta olish;	1
Yozuv mashqlari.	- berilgan tasvir yoki so‘zlarga qarama-qarshi, yaqin ma’noli so‘zlarni moslash, ko‘p ma’noli so‘zlarni turli ma’nolarini farqlash; -harakat yo‘nalishlarini tushungan holda qog‘ozga rasmlarni to‘g‘ri joylashtirib, nuqta va chiziqlarni birlashtirib rasm chizish;	1
Nutq. Muloqot.	- bo‘g‘inlar yordamida so‘z va shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish; - syujetli rasm asosida hikoya tuzish; -badiiy asarni qayta hikoyalash;	1
Ijodiy rivojlanish	- atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni qo‘llab, turli predmetlardan kompazitsiyalar yaratish; - talab etilayotgan muammoni aniqlab, unga yechim sifatida turli predmetlarni qo‘llaydi, ularni qo‘llashda g‘oyalar taklif etish;	1
Leksik tushunish va faktik tafsilotlar (Literal Comprehension)	- Gapdagi aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlar, faktik tafsilotlar va kontekstual leksik birliklarni tushunish.(Ingliz tilida)	1

IV. Suhbat jarayonining o‘tkazilish tartibi va baholash mezonlari

1. Talabgorlar 5 ta savoldan iborat biletni tanlaydi.
2. Biletni tanlagach, tayyorlanish uchun alohida vaqt berilmaydi.
3. Har bir o‘quvchi savollarga javob berishi uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Zarur bo‘lsa, qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.
4. Har bir topshiriq 5 ballik tizimda baholanadi. Nomzodlarning umumiy 25 ball bilan baholanadi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasini nutqni tinglash, tushunish, so‘zlash va muloqot qilish, muammoli yechimlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan baholanadi.

BAHOLASH RUBRIKASI

Indikatorlar /baholash mezonlari	5 ball (yuqori)	4 ball (yaxshi)	3 ball (o'rta)	2 ball (qoniqarli)	1 ball (past)
1. “Men” tamoyili asosida ijtimoiy- hissiy rivojlanishni ifodalashi	5 yo‘nalishning barchasi: o‘zi, oilasi, davlati, millati va tili haqida to‘g‘ri ma’lumot beradi. Kamida 3 ta o‘zaro bog‘langan gap bilan mustaqil fikr bildiradi. Hissiy munosabati va orzusini ham aytadi. Yo‘naltiruvchi savol talab etilmaydi.	5 yo‘nalishdan kamida 4 tasi haqida to‘g‘ri ma’lumot beradi. Fikrini 2–3 ta bog‘langan gap bilan ifodalaydi. Hissiy munosabati yoki orzusini aytadi. Ko‘pi bilan 1 ta yo‘naltiruvchi savol beriladi.	5 yo‘nalishdan 3 tasi haqida to‘g‘ri ma’lumot beradi. Kamida 2 ta sodda, mazmunan bog‘liq gap aytadi. Hissiy munosabati yoki orzusini 1–2 ta yo‘naltiruvchi savol yordamida ifodalaydi.	5 yo‘nalishdan 2 tasi haqida ma’lumot beradi. Javoblari alohida so‘z yoki sodda gaplardan iborat. 3 va undan ortiq yo‘naltiruvchi savol talab etiladi. Hissiy munosabati yoki orzusini ifodalay olmaydi.	5 yo‘nalishdan faqat 1 tasi haqida to‘g‘ri ma’lumot beradi yoki javoblarida xatolar ko‘p uchraydi. Yo‘naltiruvchi savollar bilan ham fikrini bog‘lab ayta olmaydi.
2. Ijodiy topshiriqni shartiga mos bajarishi	Quyidagi 5 harakatning barchasini mustaqil bajaradi: muammoni aniqlaydi; mos yechimni tanlaydi; bajarish ketma-ketligini belgilaydi; berilgan predmetlardan maqsadga muvofiq foydalanadi; topshiriq shartiga mos yakuniy tasvir/mahsulot yaratadi.	5 harakatdan 4 tasini to‘g‘ri bajaradi. Bajarish davomida ko‘pi bilan 1 marta yo‘naltirish talab etiladi.	5 harakatdan 3 tasini to‘g‘ri bajaradi. Muammo yoki yechimni aniqlash uchun 1–2 marta yordam talab etiladi. Yakuniy tasvir topshiriq shartiga qisman mos keladi.	5 harakatdan 2 tasini bajaradi. 3 va undan ortiq marta yordam talab etiladi. Predmetlardan qisman foydalanadi, yakuniy tasvir muammo yechimiga to‘liq mos kelmaydi.	5 harakatdan ko‘pi bilan 1 tasini bajara oladi. Yordam bilan ham muammo yechimini aniqlay yoki topshiriq shartiga mos tasvir yarata olmaydi.
3. Nutq va muloqot ko‘nikmasi	Quyidagi 5 ko‘rsatkichning barchasini namoyon etadi: kerakli so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llaydi; mazmunli gap tuzadi; kamida 3 ta o‘zaro bog‘langan gap aytadi; fikrini izchil yakunlaydi; o‘z hissiyotini aytib, sababini sodda tarzda tushuntiradi. Barchasini mustaqil bajaradi.	5 ko‘rsatkichdan 4 tasini namoyon etadi. Fikrini tushunarli ifodalaydi. Ko‘pi bilan 1 ta yo‘naltiruvchi savol talab etiladi.	5 ko‘rsatkichdan 3 tasini namoyon etadi. Gap tuzadi, lekin bog‘lanishli fikr bildirishda 1–2 ta yo‘naltiruvchi savol talab etiladi.	5 ko‘rsatkichdan 2 tasini namoyon etadi. Asosan so‘z yoki alohida sodda gaplar bilan javob beradi. 3 va undan ortiq yo‘naltiruvchi savol talab etiladi.	So‘z ma’nosini tushunishda yoki gap tuzishda qiynaladi, yordam bilan ham bog‘lanishli fikr bildira olmaydi.

4. Yozuv mashqlarini aniq bajarishi	Tasvirni belgilangan nuqta/katakka to'g'ri joylashtiradi; barcha harakat yo'nalishlarini to'g'ri bajaradi; chiziq va shakllarni namunaga mos chizadi; yozuv qurolini ergonomik jihatdan to'g'ri tutadi. Xato qilmaydi.	Tasvirni to'g'ri joylashtiradi va yozuv qurolini to'g'ri tutadi. Chizish yoki yo'nalishda 1 ta xatoga yo'l qo'yadi.	Tasvirning asosiy qismini to'g'ri bajaradi. Chiziq, joylashuv yoki harakat yo'nalishida 2–3 ta xatoga yo'l qo'yadi. Yozuv qurolini to'g'ri tutadi yoki 1 marta eslatilgach to'g'rilaydi.	Tasvirni bajarishda joylashuv, chiziq yoki harakat yo'nalishi bo'yicha 4–5 ta xatoga yo'l qo'yadi. Yozuv qurolini to'g'ri tutish uchun bir necha marta eslatish talab etiladi.	Tasvirning asosiy yo'nalishini tushunmaydi, topshiriqni yakunlay olmaydi yoki 5 tadan ortiq xatoga yo'l qo'yadi. Yozuv qurolidan to'g'ri foydalanishda doimiy yordam talab etiladi.
5. Leksik tushunish va faktik tafsilotlar (Literal Comprehension)	Berilgan gap yoki qisqa matndagi asosiy elementning barchasini to'g'ri aniqlaydi: shaxs/predmet; harakat; joy; vaqt yoki miqdor; kontekstdagi so'z/iboraning ma'nosi. Javoblarni mustaqil va xatosiz bajaradi.	Kontekstdagi asosiy leksik birlik ma'nosini tushunadi. 1 ta xatoga yo'l qo'yadi yoki ko'pi bilan 1 marta yo'naltirish talab etiladi.	Gapning umumiy mazmunini tushunadi, biroq ayrim faktik tafsilot yoki so'z ma'nosini aniqlashda 1–2 marta yordam talab etiladi.	Asosiy ma'lumotlarni qisman tushunadi, lekin faktik tafsilotlar va leksik birliklarni farqlashda 3 va undan ortiq yo'naltirish talab etiladi.	Gapdagi aniq ma'lumot va kontekstdagi asosiy so'z ma'nosini yordam bilan ham to'g'ri aniqlashda qiynaladi.

